



“SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA QARORLAR QABUL QILISH TIZIMLARI”

Safarov Ramazon Asadulla o’g’li

Toshkent davlat yuridik universiteti, Ommaviy huquq fakulteti, Davlat va jamiyati boshqaruvi, 2-kurs talabasi
safarovramazon0799@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola SI asosidagi qaror qabul qilish tizimlarining afzalliklari, ularning xavf-xatarlari, shuningdek, inson omilining saqlanishi, shaffoflik va javobgarlik mexanizmlarini ta’minlash masalalari yoritiladi. Tadqiqot obyekti sifatida sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida qaror qabul qilish tizimlari, predmeti sifatida esa ularning huquqiy, texnologik va axloqiy asoslari tanlangan. Maqola O‘zbekiston Respublikasining raqamli rivojlanish siyosati, xalqaro tashkilotlarning me’yoriy hujjatlari (BMT, OECD, Yevropa Ittifoqi “AI Act” qonuni) va ilg‘or davlatlar tajribasiga tayangan holda olib boriladi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, qaror qabul qilish, muammoni aniqlash, tizimlar, ta’lim, sud, huquq, axloq.

Hozirgi globalashgan dunyoda jamiyatimizning ayrilmas qismi bo’lib ulgurgan va insoniyatning eng mashxur ixtirolaridan biri deb etirof etilayotgan su’niy intellekt hisoblanadi. Su’niy intellekt insoniyatning ko’pgina sohalariga kirib kelmoqda. Misol uchun iqtisodiyot, farmaseftika, sog’liqni-saqlash, ta’lim, siyosat, xarbiy va boshqa soxalar. Misol SI iqtisodiyotning barcha jabhalariga, jumladan, innovatsiya qilish, biznes yuritish va tashkil etish usullariga ta’sir ko’rsatish salohiyatiga ega (Cockburn va boshqalar, 2019). SI ning ajoyib xususiyatlaridan biri bu odamlarga nisbatan arzon narxlarida yuqori sifatli bashoratlarni taqdim etish va keng ko’lamli bashoratlarni avtomatlashtirish qobiliyatidir (Agrawal va boshqalar, 2018). SI allaqachon ko’plab sohalarda, jumladan, strategik rejalashtirish (Silver va boshqalar, 2017), tibbiy diagnostika (Wang va boshqalar, 2019) va yangi dori vositalarini ishlab chiqish (Wallach va boshqalar, 2015)⁵⁰. SI bu sohalrda yana bir muhim ishlaridan biri bu qaror qabul qilishi hisoblanadi. Masalan, algoritmlar shifokorlarga bemorlarning xavf omillarini baholashda va sog’liqni saqlash tekshiruvlari va davolash usullarini aniqlashda yordam beradi va sudyalarga sudgacha ozod qilish to’g’risida qarorlar qabul qilishda, shuningdek, jazo va shartli ravishda ozod qilish to’g’risida qaror qabul qilishda yordam berishi ⁵¹. Qaror qabul qilish jarayonlarida texnologiyaning

⁵⁰ How Does AI Improve Human Decision-Making? Evidence from the AI-Powered Go Program* Sukwoong Choia Namil Kimb,* Junsik Kimc Hyo Kangd July 2021

⁵¹ AI-Assisted Decision Making with Human Learning Gali Noti Cornell University Kate Donahue MIT Jon Kleinberg Cornell University Sigal Oren Ben-Gurion University arXiv:2502.13062v1 [cs.AI] 18 Feb 2025

qatnashishi endilikda bu faqat texnologiya emas endi bu axloq va huquqning tutashgan qismi vujudga kelishini olib beladi. Sababi qarorlarning insonlarning huquqlariga bevosita yoki bilvosita ta'sir qilishi mumkinligi uchun.

Oksford lug'atida sun'iy intellekt (SI) quyidagicha ta'riflanadi: "Oddiy ravishda inson aqlini talab qiladigan vazifalarni, masalan, vizual idrok, nutqni aniqlash, qaror qabul qilish va tillar o'rtasida tarjima qilishni bajara oladigan kompyuter tizimlari nazariyasi va rivojlanishi⁵²." UNESCO ta'rifiga ko'ra, sun'iy intellekt — bu "inson aqliy faoliyatining elementlarini (mantiq, o'rganish, muomala, rejalashtirish) avtomatlashtirishga qaratilgan tizimlar majmui"dir. Sun'iy intellektning rivojlanishi, asosan, ma'lumotlar tahlili, mashinali o'rganish va neyron tarmoqlar asosida shakllanadi. Qaror qabul qilish nazariyasining umumiy asoslari Qaror qabul qilish — bu inson yoki tashkilot tomonidan muayyan maqsadga erishish uchun turli variantlar orasidan eng maqbulini tanlash jarayonidir. Klassik qaror nazariyasi (Herbert Simon, 1977) uch bosqichdan iborat: Muammoni aniqlash va ma'lumot to'plash; Muqobil variantlarni ishlab chiqish; Optimal qarorni tanlash⁵³. Sun'iy intellekt bu jarayonni avtomatlashtiradi va inson qaror qabul qilishdagi sub'ektiv xatolarni kamaytirishga xizmat qiladi. Qaror qabul qilishda sun'iy intellekt modellarining roli Sun'iy intellekt asosidagi qaror tizimlari bir necha asosiy modellarga tayangan holda ishlaydi: Ekspert tizimlar — ma'lum sohaga oid bilimlar bazasiga tayanib, inson mutaxassisi kabi maslahat beradi (masalan, tibbiyot yoki huquqiy masalalarda). Mashinali o'rganish modellari — statistik algoritmlar yordamida ma'lumotlardan mustaqil xulosalar chiqaradi. Neyron tarmoqlar — inson miyasining ishlash tamoyiliga o'xshash tarzda ma'lumotlarni qayta ishlaydi, murakkab naqshlarni tanib oladi. Bulutli hisoblash tizimlari — katta hajmdagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qiladi va qarorlarni tezkor chiqaradi⁵⁴. Masalan, IBM kompaniyasining Watson AI platformasi sog'liqni saqlash, biznes va huquq sohalarida qarorlarni optimallashtirish uchun sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanadi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan "Ethics Guidelines for Trustworthy AI" (2019) hujjatida qaror qabul qiluvchi SI tizimlarining shaffoflik, izohlanish va inson nazorati tamoyillari qat'iy belgilangan. Sun'iy intellekt asosidagi qaror tizimlarining afzalliklari va cheklovlarini solishtirib o'tsak. Afzalliklari: Ma'lumotlarga asoslangan obyektiv qarorlar chiqaradi; Inson hissiyotidan xoli va tezkor ishlaydi; Murakkab ma'lumotlar o'rtasidagi yashirin bog'liqlikni aniqlaydi; Samaradorlik va aniqlikni oshiradi. Cheklovlari: Algoritmardagi xatolar yoki noto'g'ri ma'lumotlar qaror sifatiga ta'sir qiladi; Axloqiy

⁵² 23rd International Command and Control Research & Technology Symposium "Multi-Domain C2" "Artificial Intelligence for Decision Support in Command and Control Systems" Johan Schubert, Joel Brynielsson, Mattias Nilsson, Peter Svenmarck

⁵³ AI-Assisted Decision Making with Human Learning Gali Noti Cornell University Kate Donahue MIT Jon Kleinberg Cornell University Sigal Oren Ben-Gurion University arXiv:2502.13062v1 [cs.AI] 18 Feb 2025

⁵⁴ 23rd International Command and Control Research & Technology Symposium "Multi-Domain C2" "Artificial Intelligence for Decision Support in Command and Control Systems" Johan Schubert, Joel Brynielsson, Mattias Nilsson, Peter Svenmarck

va huquqiy javobgarlik masalalari aniqlanmagan; Inson hissiyotlari, empatiya va intuitiv fikrlashni to'liq o'rni bosa olmaydi. Qaror tizimlarida "inson-SI" hamkorligi Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eng samarali model — bu "Human-in-the-loop", ya'ni inson nazorati ostidagi sun'iy intellekt tizimi. Bu yondashuvda SI takliflar beradi, ammo yakuniy qaror inson tomonidan tasdiqlanadi. Bunday hamkorlik insonning tajribasi bilan mashina tezligini birlashtiradi va xatolik ehtimolini kamaytiradi⁵⁵.

Huquqiy tartibga solish zaruriyati (SI) tizimlari qarorlar qabul qilish jarayoniga chuqur kirib borar ekan, bu qarorlarning huquqiy oqibatlari ham dolzarb masalaga aylanmoqda. SI yordamida chiqarilgan qarorlar inson hayoti, moliyaviy xavfsizlik yoki erkinliklariga bevosita ta'sir qilsa, javobgarlik kim zimmasida bo'lishi savoli yuzaga keladi. Masalan, AQSh va Yevropa davlatlarida SI tomonidan chiqarilgan noto'g'ri tibbiy yoki kredit qarorlari bo'yicha "algoritmik javobgarlik" (algorithmic accountability) mexanizmlari ishlab chiqilgan. Yevropa Ittifoqi 2021-yilda "Artificial Intelligence Act" loyihasini ishlab chiqdi, u SI tizimlarini xavf darajasiga ko'ra tasniflashni taklif qiladi. "Yuqori xavfli" tizimlarga — sog'liqni saqlash, transport, sud qarorlari va moliyaviy xizmatlarda ishlatiladigan SI tizimlari kiradi. Ular uchun shaffoflik, audit va inson nazorati majburiy hisoblanadi⁵⁶. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasi SI tizimlari katta hajmdagi shaxsiy ma'lumotlarni tahlil qiladi. Bu esa maxfiylik va ma'lumotlarni himoya qilish tamoyillariga rioya etishni talab qiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqining GDPR (General Data Protection Regulation) qoidalarida "avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish"da inson aralashuvi zarurligi belgilangan⁵⁷. Bu modda fuqarolarga "faqat algoritm asosida qabul qilingan qarorlar"ga qarshi chiqish huquqini beradi. O'zbekistonda ham "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun bu borada muhim asos yaratgan bo'lib, sun'iy intellekt tizimlari orqali qayta ishlanadigan ma'lumotlar xavfsizligi masalalarini tartibga soladi. Ammo SI texnologiyalariga oid maxsus normativ-huquqiy hujjatlar hali to'liq shakllanmagan. Axloqiy masalalar va algoritmik adolatsizlik SI tizimlari odatda mavjud ma'lumotlarga tayangan holda qaror chiqaradi. Agar ma'lumotlar bazasi o'zida ijtimoiy, jinsiy yoki irqiy tarafdashlikni aks ettirsa, algoritm ham adolatsiz qaror chiqarishi mumkin. Masalan, 2018-yilda Amazon kompaniyasining ishga qabul qilish algoritmi erkak nomzodlarni ayollar ustidan ustun qo'ygan, chunki u ilgari o'tkazilgan tarixiy ma'lumotlarga tayanib, "erkaklar ko'proq ishga olingan" degan xulosani chiqargan⁵⁸. Shu sababli YUNESKO o'zining "Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence" hujjatida inson huquqlari, adolat va inkluzivlik

⁵⁵ https://www.oecd.org/en/publications/governing-with-artificial-intelligence_795de142-en/full-report.html

⁵⁶ <https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/policies/european-approach-artificial-intelligence>

⁵⁷ <https://gdpr-info.eu/art-22-gdpr/>

⁵⁸ <https://www.reuters.com/article/world/insight-amazon-scraps-secret-ai-recruiting-tool-that-showed-bias-against-women-idUSKCN1MK0AG/>



tamoyillarini SI siyosatining markaziga qo'yishni tavsiya etadi⁵⁹. Javobgarlik va nazorat masalalari Sun'iy intellekt tizimlari tomonidan chiqarilgan qarorlar uchun kim javob beradi? Dasturchimi, foydalanuvchimi yoki davlatmi? Bu savol "AI accountability gap" deb ataladi — ya'ni SI qarorlari natijasida yuzaga keladigan xatoliklar uchun aniq javobgar tomonning yo'qligi. Yevropa Kengashi SI qarorlari uchun "inson nazorati majburiy bo'lishi"ni, ya'ni yakuniy qaror faqat inson tomonidan tasdiqlanishi lozimligini taklif qilgan. Shuningdek, ekspertlar "algoritmik audit" va "izohlanadigan SI" (Explainable AI) konsepsiyalarini joriy etish zarurligini ta'kidlaydilar. Bu orqali SI tizimining qaror chiqarish mantiqi tushunarli va izlanadigan bo'ladi⁶⁰.

Endilikda xorijiy davlatlarning tajribalariga nazar tashlasak. Artificial Intelligence Preparedness Index (AIPi) ning 2024-yilgi hisoboti bo'yicha AQSh — sun'iy intellekt sohasida dunyo davlatlari ichida 0.771 ball bilan 3-o'rinda turadi⁶¹. Bu mamlakatda SI yordamida qaror qabul qilish tizimlari davlat boshqaruvi, sog'liqni saqlash, sud-huquq tizimi va moliyaviy xizmatlarda keng qo'llanilmoqda. Davlat boshqaruvida: AQShning "AI in Government Act" (2020) qonuniga muvofiq, federal agentliklarda qarorlarni tezlashtirish va byurokrtiyani kamaytirish uchun SI tizimlaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Masalan, "U.S. Citizenship and Immigration Services" tashkiloti SI yordamida hujjatlar to'g'riligini tekshiruvchi avtomatik tahlil tizimini joriy qilgan. Sud tizimida: ayrim shtatlarda "COMPAS" nomli SI tizimi jinoyatchining qayta jinoyat sodir etish ehtimolini baholashda qo'llanilgan. Biroq, bu tizim irqiy tarfakashlikda ayblanib, SI qarorlarida adolat va shaffoflik zarurligini yana bir bor isbotlagan⁶². AQShning moliyaviy sektorda "FinTech AI" tizimlari kredit baholash, risklarni tahlil qilish va investitsiya qarorlarini chiqarishda ishlatiladi. Ular inson xatosini kamaytirib, tezkor va asosli qarorlar chiqaradi⁶³. Endi Yevropa Ittifoqi tajribasiga to'xtalib o'tmasak bo'lmaydi. Sabab bu ittifoq tomonidan yaxshigina qonunchilik hujjatlari qabul qilingan va endilikda ham amalga oshirmoqda tartibga solish jarayonini. Bundan tashqari Yevropa Ittifoqi (YI) SI sohasida etik, inson huquqlariga asoslangan yondashuvni tanlagan. 2019-yilda YI "Ethics Guidelines for Trustworthy AI" hujjatini e'lon qildi. Unda SI tizimlarida quyidagi tamoyillar majburiy deb belgilangan: inson nazorati (Human oversight); shaffoflik va izohlanish (Transparency & Explainability); xolislik (Fairness); xavfsizlik va ishonchlilik (Safety & Reliability)⁶⁴. YI mamlakatlarida SI qaror tizimlari, asosan: sog'liqni saqlashda (diagnostika, tibbiy tasvir tahlili), transport boshqaruvida (avtonom transport

⁵⁹ <https://www.unesco.org/en/articles/recommendation-ethics-artificial-intelligence>

⁶⁰ <https://www.coe.int/en/web/artificial-intelligence>

⁶¹ https://www.imf.org/external/datamapper/AI_PI@AIPi/ADVEC/EME/LIC

⁶² <https://arxiv.org/abs/1906.04711>

⁶³ Vasile V, Manta O. FinTech and AI as Opportunities for a Sustainable Economy. *FinTech*. 2025; 4(2):10.

<https://doi.org/10.3390/fintech4020010>

⁶⁴ <https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/library/ethics-guidelines-trustworthy-ai>

vositalari), mehnat bozorida (raqamli bandlik platformalari), va huquqni muhofaza qilishda (jinoyatchilikni bashorat qilish tizimlari) ishlatiladi. Masalan, Estoniya hukumati “KrattAI” loyihasi orqali davlat xizmatlarida avtomatlashtirilgan qaror tizimlarini joriy qilgan. Estoniya kompaniyalari biznes jarayonlarini optimallashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish, mahsulot sifatini nazorat qilish va xavflarni kamaytirish uchun bir nechta biznes sohalarida SI yechimlaridan keng foydalanadi. KrattAI Estoniyadagi odamlarga SI-ga asoslangan virtual yordamchilar bilan ovozli aloqa orqali davlat axborot xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi. KrattAI tizimi orqali fuqarolarning murojaatlarini o'rganib, byurokratik qarorlarni tezlashtiradi⁶⁵. Nazorat qilishni keng qo'laydigan davlatlardan biri Xitoy tajribasiga to'xtalsak. Xitoy sun'iy intellektni milliy xavfsizlik, iqtisodiy rejalashtirish va ijtimoiy nazorat tizimlarida keng qo'llaydi. 2017-yilda e'lon qilingan “Next Generation Artificial Intelligence Development Plan” mamlakatni 2030-yilgacha dunyoda SI sohasida yetakchiga aylantirishni maqsad qilgan. Sud tizimida “Smart Court System” orqali elektron hujjatlar tahlili va sud qarorlarini ishlab chiqishda SI yordamidan foydalaniladi. Ijtimoiy boshqaruvda esa “Social Credit System” — fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy xulqini tahlil qilib, avtomatik reyting beradi. Bu tizim axloqiy jihatdan bahsli bo'lsa-da, davlat nazoratini mustahkamlashga yordam berishlikni takidlanadi. Tibbiyot sohasida “Ping An Good Doctor” SI platformasi tibbiy maslahatlar va tashxis qo'yishda yordam beradi. Xitoy modeli texnologik jihatdan samarali bo'lsa-da, xalqaro ekspertlar bu tizimlarda inson huquqlari va shaxsiy erkinlik masalalari yetarli darajada e'tiborga olinmayotganini va asosan davlatning chuqur nazorati o'rnatilishiga olib kelganni tanqid qilganlar⁶⁶. Keying davlatlar Janubiy Koreya va Yaponiya tajribasi bo'ladi. Sababi Janubiy Koreya va Yaponiya AI'ni, asosan, ijtimoiy farovonlik, transport, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida qo'llaydi. Koreyada “AI Government 2025” dasturi qabul qilingan bo'lib, u davlat boshqaruvida SI yordamida qarorlar qabul qilishni raqamli ma'lumotlar asosida avtomatlashtirishni nazarda tutadi. Yaponiyada esa SI qaror tizimlari mehnat resurslarini tahlil qilish, keksalarga xizmat ko'rsatish va sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlashda keng ishlatilmoqda. Ikkala davlat ham SI etikasi bo'yicha “Human-Centered AI” konsepsiyasiga amal qiladi — bu yondashuvda inson qadri, ishonch va xavfsizlik eng ustuvor omil sifatida qaraladi.

Umumiy tahlil asosida xulosaga keladigan bo'lsak. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, SI asosidagi qaror tizimlari faqat texnologik masala emas, balki huquqiy, axloqiy va ijtimoiy muammolar bilan chambarchas bog'liqligi yana bir bor yaqol bo'ldi. Yevropa va Yaponiya inson markazida turgan yondashuvni, AQSh innovatsiya va bozor erkinligini, Xitoy esa davlat nazoratini kuchaytiruvchi modelni

⁶⁵ <https://interestingengineering.com/innovation/krattai-estonias-national-artificial-intelligence-strategy>

⁶⁶ https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2022/03/oecd-economic-surveys-china-2022_29d035e3/b0e499cf-en.pdf

tanlagan. O'zbekiston uchun bu tajriba shundan dalolat beradiki, SI texnologiyalarini joriy etishda inson huquqlari va shaffoflikni birinchi o'ringa qo'ygan Yevropa modeli eng maqbul yo'nalish bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt siyosatining shakllanishi O'zbekiston so'nggi yillarda raqamli texnologiyalarni, xususan sun'iy intellektni, davlat boshqaruvi tizimiga joriy etish borasida faol islohotlarni amalga oshirmoqda. 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son Qarori "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida". Ushbu qaror asosida davlatning asosiy SI bo'yicha konsepsiyasi qabul qilindi desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi mazkur hujjatda mamlakatning SI texnologiyalarini ishlab chiqish, joriy etish va huquqiy tartibga solishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berilgani. Qarorda quyidagi maqsadlar ko'rsatilgan: davlat boshqaruvida sun'iy intellektni joriy etish; ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, ekologiya va iqtisodiyot sohalarida SI yechimlarini keng qo'llash; SI sohasida milliy kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash; axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tizimini mustahkamlash. SI texnologiyalarining davlat boshqaruvida qo'llanishi. Bugungi kunda O'zbekiston hukumati sun'iy intellektni "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat xizmatlari sifatini oshirishda qo'llamoqda. Masalan: "my.gov.uz" portali orqali fuqarolarning murojaatlarini avtomatik tahlil qiluvchi SI modullari sinovdan o'tkazilmoqda. O'zbekiston Adliya vazirligi markaziy komponent sifatida sun'iy intellekt asosida ishlaydigan chatbotni o'z ichiga olgan LexAI platformasini taqdim etdi. Ushbu raqamli yordamchi fuqarolar va professional advokatlarning yuridik so'rovlarini hal qilish uchun mo'ljallangan. Chatbot o'z ma'lumotlarini O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasidan oladi. Besh oy davomida u 34 000 dan ortiq amaldagi normativ hujjatlarni tahlil qilib, aniq va dolzarb javoblarni taqdim etdi. "Prezident bizga sun'iy intellektni hayotning barcha jabhalariga integratsiya qilish vazifasini qo'ydi. LexAI bu yo'nalishdagi birinchi qadamdir. Inson hayotining huquqiy asoslarini tushunish juda muhim, lekin qonunlarning murakkab tili ko'pincha ularni tushunishni qiyinlashtiradi. Ushbu platforma jarayonni soddalashtirishga qaratilgan", - dedi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sherzod Shermatov⁶⁷. Soliq qo'mitasi va Markaziy bank ma'lumotlarni tahlil qilib, soliq intizomini oshirish va moliyaviy qarorlarni optimallashtirishda SI yechimlaridan foydalanmoqda. Shuningdek, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida "Sun'iy intellekt markazi" tashkil etilgan bo'lib, u SI texnologiyalarini mahalliyashtirish, dasturchilarni tayyorlash va davlat sektoriga SI integratsiyasini muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadi. Ilmiy-tadqiqot va kadrlar tayyorlash yo'nalishlari O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari — xususan, Toshkent davlat texnika universiteti, INHA universiteti, TATU, Toshkent davlat yuridik universiteti va IT Park platformalari doirasida SI sohasida ilmiy izlanishlar olib

⁶⁷ https://www.uzdaily.uz/en/lexai-platform-to-launch-in-uzbekistan/?utm_source=



borilmoqda. 2022-yildan boshlab “Sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili” yo’nalishi bakalavriat va magistratura darajalarida o’qitilmoqda. Huquqiy asoslar va normativ-huquqiy hujjatlar Sun’iy intellekt faoliyatini huquqiy tartibga solish maqsadida quyidagi asosiy hujjatlar qabul qilingan. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4996-sonli qarori 2021-yil 17-fevral “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to’g’risida” va 2021-yil 26-avgustdagi PQ-5234-son qarori “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo’llash bo’yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida”, “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi Qonun, “Elektron hukumat to’g’risida”gi Qonun, “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish to’g’risida”gi qarorlar va farmonlar. Bu hujjatlar orqali SI texnologiyalarining qonuniy joriy etilishi, ma’lumotlar xavfsizligi, fuqarolarning shaxsiy huquqlarini himoya qilish va davlat organlarining mas’uliyati belgilab berilgan. Rivojlanish istiqbollari O’zbekiston Respublikasida sun’iy intellekt asosida qaror qabul qilish tizimlarini rivojlantirish istiqbollari quyidagi yo’nalishlarda belgilanmoqda:

Normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish — SI yordamida qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlik, audit va shaffoflik mexanizmlarini joriy etish. Inson markazidagi SI siyosatini yaratish — texnologiyani emas, balki inson manfaatlarini birinchi o’ringa qo’yish. Davlat sektorida SI qaror tizimlarini kengaytirish — sud, sog’liqni saqlash, soliq va ekologiya tizimlarida avtomatlashtirilgan qaror platformalarini joriy etish. Mahalliy dasturiy ta’minot ishlab chiqishni qo’llab-quvvatlash — xorijiy texnologiyalarga qaramlikni kamaytirish. Ta’lim va ilmiy salohiyatni oshirish — universitetlarda SI etikasi, huquqi va boshqaruvi bo’yicha o’quv dasturlarini kengaytirish. Yaqin yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirishi, inson xatosini kamaytirishi va raqamli iqtisodiyotning yangi bosqichiga o’tishga imkon yaratishi kutilmoqda. Xullas, O’zbekiston tajribasi hali shakllanish bosqichida bo’lsa-da, davlat siyosatining yo’nalishi va qabul qilingan strategik hujjatlar mamlakatda SI asosidagi qaror qabul qilish tizimlari uchun mustahkam huquqiy, texnologik va ilmiy zamin yaratayotganini ko’rsatadi.

Xullosa qiladigan bo’lsak sun’iy intellekt asosida qarorlar qabul qilish tizimlari bugungi kunda insoniyat faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib bormoqda. Bunday tizimlar inson tafakkuri, tajribasi va mantiqiy fikrlash jarayonlarini raqamli muhitda modellashtirish orqali qaror qabul qilishni tezlashtiradi, xatolik ehtimolini kamaytiradi hamda samaradorlikni oshiradi. Ayniqsa, davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi, moliya, sog’liqni saqlash, ta’lim va transport kabi sohalarda sun’iy intellekt yordamida qabul qilingan qarorlar amaliy natijalami berayotganini xorijiy tajriba isbotlamoqda. Shu bilan birga, ushbu texnologiya huquqiy, axloqiy va ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Insonning shaxsiy hayoti daxlsizligini ta’minlash, ma’lumotlar maxfiyligini saqlash, algoritmik diskriminatsiyaning oldini

olish hamda mas'uliyatni aniqlash kabi masalalar bu sohada eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shu bois, sun'iy intellektning huquqiy maqomini belgilovchi va uni boshqaruv tizimlariga integratsiya qiluvchi aniq normativ asoslarni yaratish zarurdir. Xorijiy mamlakatlar tajribasi, jumladan Yevropa Ittifoqining "AI Act", AQSHning "AI Bill of Rights" tashabbuslari, Yaponiya va Janubiy Koreyaning "Inson markazidagi SI siyosati" kabi hujjatlari, O'zbekiston uchun ham huquqiy yo'l xaritasini shakllantirishda muhim namuna bo'la oladi. Ularning barchasida asosiy e'tibor — "inson omili ustuvorligi" tamoyiliga qaratilgan. Ya'ni, sun'iy intellekt tizimlari insonning o'rnini egallamasligi, balki uning faoliyatini qo'llab-quvvatlashi kerak. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, "Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi" va "Elektron hukumat to'g'risidagi" qonunlar asosida bu yo'nalishda sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish, ochiq ma'lumotlar bazalaridan foydalanish va SI-ga asoslangan yechimlarni joriy etish orqali boshqaruv jarayonlari yanada shaffof va samarali bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ilmiy izlanishlarni kengaytirish, SI mutaxassislarini tayyorlash va mahalliy huquqiy mexanizmlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish — yaqin yillarda O'zbekistonning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi lozim. Yakuniy xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt yordamida qarorlar qabul qilish tizimlari — bu nafaqat texnologik taraqqiyot mahsuli, balki huquqiy, axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatni ham talab qiluvchi murakkab tizimdir. Shu sababli, bu yo'nalishda harakatlar faqat texnik darajada emas, balki chuqur tahliliy va normativ yondashuv asosida olib borilishi lozim. Inson huquqlarini himoya qilgan, shaffof, ishonchli va adolatli qarorlarni ta'minlaydigan sun'iy intellekt tizimlarinigina haqiqiy taraqqiyotga xizmat qiladi.

Foydalingan adabiyotlar:

1. How Does AI Improve Human Decision-Making? Evidence from the AI-Powered Go Program* Sukwoong Choia Namil Kimb,* Junsik Kimc Hyo Kangd July 2021
2. AI-Assisted Decision Making with Human Learning Gali Noti Cornell University Kate Donahue MIT Jon Kleinberg Cornell University Sigal Oren Ben-Gurion University arXiv:2502.13062v1 [cs.AI] 18 Feb 2025
3. 23rd International Command and Control Research & Technology Symposium "Multi-Domain C2" "Artificial Intelligence for Decision Support in Command and Control Systems" Johan Schubert, Joel Brynielsson , Mattias Nilsson , Peter Svenmarck
4. Vasile V, Manta O. FinTech and AI as Opportunities for a Sustainable Economy. FinTech. 2025; 4(2):10. <https://doi.org/10.3390/fintech4020010>



Foydalingan saytlar:

1. www.lex.uz
2. www.oecd.org
3. WWW.gdpr-info.eu
5. www.reuters.com
6. WWW.digital-strategy.ec.europa.eu
7. WWW.doi.org
8. www.unesco.org
9. WWW.arxiv.org
10. www.coe.int
11. www.imf.org
12. WWW.interestingengineering.com
13. www.uzdaily.uz